

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Karimov	
A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida leksik- stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash tamoyillari	125
A.A.Shernazarov, X.J.Jamolova	
“Boburnoma”dagi forscha baytlarning mualliflari	129
M.B.Rajabova	
Alisher Navoiy ijodida marsiya va lavhalar	133
G.S.Qurbonova	
Nurali Qobul ijodida ayol ruhiyati tasviri	140
M.K.Mirzoyev	
Farzona Xo‘jandiy she‘rlarida motam marosimining badiiy ifodasi	145
M.A.Jo‘rayeva	
Cho‘lponning “Vayronalar orasida” asari janr xususiyatlari	149
L.A.Masharipova	
O‘zbekimning go‘zal urf-odatları	154

TILSHUNOSLIK

M.Y.Mamajonov, Z.A.Mirzamatova	
Diplomatik munosabatlar ramz va turlarining tasniflari	158
Z.Sh.Pazilova	
O‘zbek va nemis tillarida to‘y bilan bog‘liq leksik birliklar	163
M.Y.Xusaynova	
O‘zbek va ingliz tillarida paxta leksemasining lingvomadaniyatda aks etishi	168
M.M.Mamajanova	
Ingliz tili grammatikasining retseptiv ko‘nikmalarini o‘rgatish	172
N.A.Xoshimova, M.R.Nematjonova	
Tarjimada realiyalar masalasi	176
X.M.Maripova	
Frazeologik birliklarning lingvokulturologiya bilan bog‘liqligi	179
N.A.Mansurova	
Tilshunoslikda terminologiya masalalari	183
M.R.Komilova	
O‘zbek tilshunosligida o‘zlashma leksemalarning o‘rganilishi tarixi.....	187
J.X.Djamolov	
O‘zbek tilining davlat tili maqomiga erishish jarayoni	192
Sh.T.Yusupova	
Lingvistik interferensiya hodisasining mohiyati xususida	197
M.O.Batirxanova	
Somatik frazeologik birliklar tadqiqida “Madaniy kodlar”	201
G.X.Saydullayeva, O.P.Uralova	
“TikTok” ijtimoiy tarmoq izohlarida xorijiy so‘zlarning izohlarda ishlatilishi.....	203
M.M.Nurmatova, M.O.Oripova	
Nutqiy etiketni shakllantirishda madaniyat va ijtimoiy omillarning o‘rni.....	206

MATEMATIKA

A.K.Yusupova, B.Qurbonov	
Ba‘zi biologik jarayonlarni differensial tenglamalar yordamida o‘rganish	209
O‘.U.Ismailov	
Atoqli otlar nazariyasi va semantikasi.....	214

FIZIKA– TEXNIKA

E.X.Bozorov, M.A.Abdullayeva	
Oliy ta‘lim muassasalarida “radiatsiya xavfsizligi” fanini o‘qitishda interfaol metoddan foydalanish	218

O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDA TO‘Y BILAN BOG‘LIQ LEKSIK BIRLIKLAR

ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, СВЯЗАННЫЕ СО СВАДЬБОЙ В УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ

LEXICAL UNITS RELATED TO WEDDING IN UZBEK AND GERMAN LANGUAGES

Zilola Pazilova Shuhratovna¹¹Zilola Pazilova Shuhratovna

– Fag‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada “to‘y” leksemasi bilan bog‘liq turli rasm-rusumlar jumladan, unashtiruv, nahorgi osh, kelin-kuyov tashakkuri, kelin-kuyov raqsi, kelin-kuyov tomonidan tortni kesish, mehmonlarning to‘yga tashrifi, to‘y kuni qarindoshlar va mehmonlar tomonidan sovg‘alar va to‘yonalarning topshirilishi borasida o‘zbek va nemis xalqlaridagi o‘ziga xos xususiyatlar, nemis xalqida 16 yoshga to‘lgan farzand mustaqil, erkin hayot kechirishi mumkinligi, nemis urf-odatini bo‘yicha kelinning gul irg‘itishi, asal oyi, o‘zbek xalqidagi kelinning to‘ydan keyingi vazifalari, to‘yda ota-onaning o‘ziga xos o‘rni kabilar atroflicha tadqiq etiladi, ularning o‘iga hos hususiyatlari ya‘ni ohshash va farqli jihatlari ochib beriladi

Аннотация

В данной статье представлены различные образы, связанные со словом «свадьба», в том числе помолвка, обед, благодарение жениха и невесты, танец жениха и невесты, разрезание торта женихом и невестой, визит гостей на свадьбе, вручение подарков и подарков родственниками и гостями в день свадьбы, об уникальных особенностях узбекского и немецкого народов, о том, что ребенок, достигший 16-летнего возраста, может жить самостоятельной и свободной жизнью в немецком народе, невеста бросает цветы по немецкой традиции, медовый месяц, обязанности невесты после свадьбы в узбекском народе, особая роль родителей на свадьбе и т. д. тщательно исследуются, выявляются их отличительные черты, а также сходства и различия.

Abstract

In this article, various images related to the word "wedding" are presented, including engagement, dinner, thanksgiving of the bride and groom, dance of the bride and groom, cutting of the cake by the bride and groom, the visit of guests to the wedding, the handing over of gifts and gifts by relatives and guests on the day of the wedding. about the unique characteristics of the Uzbek and German peoples, the fact that a child who has reached the age of 16 in the German people can live an independent and free life, according to the German tradition, the bride throws flowers, the honeymoon, the duties of the bride after the wedding in the Uzbek people, the special role of parents in the wedding etc. are thoroughly researched, and their distinctive features, i.e. similarities and differences, are revealed.

Kalit so‘zlar: to‘y, unashtiruv, asal oyi, do‘st, kelin, kuyov, sovg‘alar va to‘yonalar, yuz ochdi, kelin salom, mustaqil, erkin hayot.

Ключевые слова: свадьба, помолвка, медовый месяц, друг, невеста, жених, подарки и подарки, лицо открылось, приветствие невесты, независимая и свободная жизнь.

Key words: wedding, engagement, honeymoon, friend, bride, groom, gifts and gifts, face opened, bride hello, independent, free life.

KIRISH

Ma‘lumki, an‘analar dunyo xalqlarining tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va avlodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o‘tib kelayotgan bebaho ma‘naviy boyligi hisoblanishi barchamizga ma‘lum. Ayniqsa turli xalqlarning urf-odatlarini qiyosiy planda tadqiq etish ham ana shu ma‘naviy boylikka nisbatan alohida e‘tibor sanaladi. Biz bir-biridan uzoqda yashovchi nemis va o‘zbek xalqlariga oid urf-odat nomlarini ifodalovchi leksik birliklar orasida to‘y marosimlari bilan bog‘liq ifodalarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq o‘tgan asrda o‘zbek tilshunosligida ularni qiyosiy planda tadqiq etishga yetarlicha e‘tibor qaratilmadi. Etnografik leksikaga doir bir til doirasida olib borilgan ayrim izlanishlarni e‘tiborga olmaganda, bu masala lingvistlar diqqatidan ancha chetda qoldi. Mazkur maqolada o‘zbek va nemis tillarida to‘y bilan bog‘liq lug‘aviy birliklari atroflicha tahlilga tortiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbek va nemis tilshunosligida urf-odatlariga bog‘liq to‘y marosimlarida ishlatiluvchi nomlar, nikoh qo‘shiqlari, yangi tug‘ilgan chaqaloqlik paytida o‘tkaziladigan marosimlar sarasiga kiruvchi o‘zbeklarda azon chaqirish, aqiga va nemislarda Taufen (cho‘qintirish) va ularning muayyan dialektlarda qo‘llanilishi borasida A.Jo‘raboyev, Z.Husainova, F.Hayitova, M.Qahhorova, M.Alaviya, B.Sarimsoqov, D.Larxer,

S.Kiniker, B.Minshavi, P.Ardax, D.Doring, M.Koroni kabi o'zbek va nemis olimlarining monografik tadqiqotlari mavjud. [1.] Ushbu tadqiqotlarda o'zbek va nemis xalqlaridagi to'y marosimiga tegishli qator so'z va iboralar obyekt sifatida olingan va ular tahlilga tortilgan.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da **to'y** leksemasi shunday izohlanadi:

To'y – 1. Ko'pincha bazm-tomoshalar bilan ziyofat berib o'tkaziladigan ba'zi marosimlarning umumiy nomi. 2. Qudalar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq kuyov tomondan qiz tomonga beriladigan pul, sarpo-suruq, masalliq va shu kabilar majmui. 3. Biror voqea-hodisaga bag'ishlab ziyofat va o'yin-kulgilar bilan o'tkaziladigan tantanalar. [2. 243-244 b]

To'y leksemasi marosimning umumiy nomi sifatidagi ma'nosi dastlabki izohda ko'zga tashlanmoqda. Leksemaning navbatdagi ma'nosi nikoh to'yi bilan bog'liq predmet nomlari sifatida izohlanadi. O'zbek urf-odatlarida orasida to'y yubordi deb atalgan maxsuslashgan ibora ham mavjud bo'lib, bu iborada to'y leksemasining ayni shu ma'nosi e'tiborga olinadi. Izohda berilgan uchinchi ma'noda xursandchilik bilan aloqador har qanday marosim, tadbirlar e'tirof etiladi. Masalan:

Adolat: “To'y yaqinmi hali?” deb edi, Begimxon yerga qaradi (I.Rahim).

Keltirilgan misolda leksemaning xursandchilik bilan bog'liq nikoh marosimiga tegishli ma'nosi nazarda tutilganini ko'rishimiz mumkin.

“Nemis tilining izohli lug'ati”da **to'y** leksemasi shunday izohlanadi:

Hochzeit – 1. Die Zeremonie, bei der ein Mann u. eine Frau Auf dem Standesamt od. in der Kirche erklären, dass sie ihr Leben zusammen verbringen wollen. 2. Eine Feier, die am Tag von j-s Hochzeit staatfindet (Hochzeit feiern, halten; eine Hochzeit ausrichten, j-n zur Hochzeit einladen). 3. die silberne, goldene, diamantene, eiserne Hochzeit. der 25. 50. 60. 65. Jarestag einer Hochzeit od. eine Feier an diesem Tag. [3. 554 b]

(To'y - 1. Turmush qurishni xohlagan erkak va ayol fuqarolik holatlari hujjatlarini qayd etish ma'muriyati yoki cherkovda qayd etiladi. 2. To'y kuni nishonlanadigan bayram (To'yni bayram qilmoq, nishonlamoq; to'y qilmoq, kimnidir to'yga taklif qilmoq. 3. Turmush qurganlariga 25, 50, 60 yoki 65 yil bo'lganiga qarab nikoh qilingan kuni nishonlanadigan kumush, oltin, brilliant yoki platina (oqoltin) to'y)

Ko'rinadiki, nemis tilining izohli lug'atida to'y leksemasining dastlabki ma'nosi kuyov va kelinning nikoh marosimini o'tkazish uchun fuqarolik holatlari hujjatlarini qayd etish ma'muriyati yoki cherkovda qayd etilayotgan tantana hisoblansa, ikkinchi ma'nosi to'y kuni biror joyda o'tkaziladigan bayram va uchinchi ma'nosi er-xotinning turmush qurgandan keyingi hayotining ma'lum davrlarida o'tkaziladigan bayram sifatida tushuniladi.

“Nemis tilining izohli lug'ati”da **unashtiruv** (“die Verlobung”) yoki **unashtirilgan** (“verlobt”) leksemasi shunday izohlanadi:

Verlobung die; -, -en; **e-e V. (mit j-m)** das offizielle Versprechen, dass man j-n heiraten wird <e-e V. bekannt geben, (auf)lösen; V. feiern> || K-: **Verlobungs-, -anzeige, -feier, -ring. (Unashtiruv** – kim bilandir turmush qurishi to'g'risida rasmiy va'da berish, unashtiruvni e'lon qilish, unashtiruvni bekor qilish, bayram qilish. Unashtiruv e'loni, unashtiruv bayrami, unashtiruv uzugi.)

verlobt 1. Partizip Perfekt; **verloben 2.** Adj; nicht adv; **(mit j-m) v.** so, dass man j-m versprochen hat, ihn zu heiraten: Nachdem sie ein Jahr miteinander verlobt waren, heirateten sie || hierzu **Verlobte** der/die; -n, -n. (Kim bilandir turmush qurish uchun va'da berish. Unashtirilgandan bir yildan so'ng turmush quradilar. || Unashtirilgan) [3. 1160 b]

F.Hayitova nikoh to'yi qo'shiqlarining lingvistik xususiyatlari borasida so'z yuritar ekan, qo'shiqlar tilida qavm-qarindoshlik va maishiy turmush leksikasi katta o'rin egallashini va bunday leksemalarning to'y qo'shiqlari tilida yana qo'shimcha semantik qirra (ottenka)ga ega bo'lishini ta'kidlaydi. [4.6 b]

M.Qahhorova o'zbek tilidagi rasm-rusumlar bilan bog'liq tushunchalarning nomlarini sistemaviy asosda maxsus o'rganib, ularni turli urf-odatlar, marosimlar bilan bog'liq tushunchalarni muayyan mikromaydonga birlashtiradi va ularni semik jihatdan tahlil etishga harakat qiladi.[5.128 b]

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, o'zbek xalqi to'yparast xalq. U to'y qilaman, el duosini olaman, boshqalarni quvonchimga sherik qilaman degan maqsadda yashaydi. Shuning uchun to'y o'zbek millati hayotida muqaddas hodisa hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har ikki tilda “to'y” leksemasi bilan bog'liq turli ma'nolar mavjud. O'zbek xalqida nikoh to'yi marosimiga azaldan ota-onalar bosh bo'lishgan. Ota-onalar o'g'lini uylantirishda yoki qizini turmushga berishda to'y bilan bog'liq barcha sarf-xarajatlarni butunlay o'z zimmalariga olishlari, buning uchun bir necha yillar davomida orzu- havas bilan “yig'inib- terinishlari”, imkon qadar o'z mavqeyiga mos ravishda bo'lajak kelin yoki kuyovni o'zlari tanlashlariga harakat qilishlari, albatta bu o'rinda farzandlarining xohish –irodalariga qaraydilar, lekin agar farzandlarining tanlagan yoki

TILSHUNOSLIK

yoqtirgan kishilari oilasining xulq-atvori, kelib chiqishi va jamiyatdagi mavqeyiga mos kelmasa, butunlay bu nikohga qarshi bo'lganliklarini kuzatishimiz mumkin.

Yusufbek xoji: -“O'g'lim, xaytovur sen eshtirdingmi yoki yo'qmi, biz sening ustingdan bir ish qilib qo'ydik” (O'tgan kunlar. A. Qodiriy). Keltirilgan misoldan shuni anglashimiz mumkinki, Otabekning ota-onasi o'g'lining roziligini olmasdan o'zlari xohlagan joyga unashtirib qo'yishgan bo'lishadi.

O'tmishdan bizga shunday urf-odatlar, qarashlar ma'lumki, “Ota-ona hech qachon farzandiga yomonlikni ravo ko'rmaydi”, “Ota-ona farzandining baxt-saodatini o'ylaydi”, “Ota rozi-xudo rozi” degan tushunchalar qon-qonimizga singib ketgan. Juda ko'p holatlarda qadimda kelin bilan kuyov bir-birlarini faqat to'ydan keyin ko'rishgan. Hattoki, o'tmishda “Men falon qiz yoki yigitni yaxshi ko'rdim, unga uylanmoqchiman yoki turmushga chiqmoqchiman“ deyish farzandlar uchun uyat hisoblangan.

Nemis xalqida esa ayniqsa bugungi kunda to'y leksemasi bilan bog'liq ma'no o'zbek xalqidan anchayin farq qiladi. Nemis xalqida 16 yoshga to'lgan farzand mustaqil, erkin hayot kechirishi mumkin. U nikoh borasida turmush quradigan kishisini o'zi erkin tanlashi, to'y bilan bog'liq sarf- xarajatlarni bo'lajak kelin va kuyov birgalikda qilishlari, to'yga kimlar taklif qilinadi, qaysi kunga belgilanadi kabi masalalarni o'zlari hal etadilar. Albatta to'ydan kamida bir yil oldin yigit va qiz bo'lajak turmush o'trog'ini ota-onasi bilan tanishtiradilar. Ota-ona uchun bo'lajak kelin-kuyovning ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeyi yoki millati hech qanday rol o'ynamasligini kuzatishimiz mumkin.

Odatda nemis xalqida to'ydan oldingi unashtiruv marosimi kamida bir yil oldin bo'lishi lozim.

Unashtirishga bir yil berilishiga sabab sifatida bu orada bo'lajak kelin-kuyovlarga bir-birlarini sinashlari yoki birgalikda turmush qurishga tayyor yoki tayyor emasliklariga muhlat beriladi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, oilani muqaddas hisoblaganliklari bois, tez ajralishlarni oldini olish deb hisoblaydilar. Unashtirish marosimini bir-biriga ko'ngil qo'ygan yigit va qiz turli tartibda o'tkazishlari kuzatiladi. Ko'p hollarda yigit qizga unashtiruv kunini kutilmagan sovg'a sifatida aytmadan o'zining va qizning oila a'zolarini ma'lum bir joyni bayramona bezatib, qizni shu joyga taklif etib, barchaning oldida yigit tiz cho'kib, qizning qo'lini so'raydi va qizning roziligini olib unashtiruv uzugini taqadi.[1. 117 b] Shundan so'ng yuqorida ta'kidlaganimizdek, unashtiruv marosimidan bir yildan so'ng to'y qilinadi. Davlat tomonidan nikoh qayd etilayotgan marosimda kelin-kuyovlarning qanday qilib turmush qurishga qaror qilganliklarini, ya'ni tanishuv tarixlari birma-bir o'qib eshittirilishini qiziq bir holat sifatida e'tirof etish mumkin. Nikoh qayd etilgandan so'ng kamida o'n besh yoki yigirma kundan keyin to'y marosimi o'tkaziladi. To'yga ko'pi bilan yuz nafar mehmon, ya'ni kelin va kuyovning ota-onasi, yaqin qarindoshlari, hamkasblari va do'stlari taklif etiladi. Yevropada, jumladan, nemis xalqida ham asal oyi leksemasi o'ziga xos xususiyatga ega. To'ydan keyin kelin va kuyov o'zlari jamg'argan mablag'lari hisobiga “asal oyi” sayohatiga chiqishlari mumkin.

Chet elda to'ydan keyin,
Yoshlar tark etib uyin,
Bir oy sayohat o'yin-
“Asal oyi” boshlanar.

O'zbeklarda boshqacha,
“Asal oyi” - bir kecha,
So'ng har tong supur ko'cha,
“Sahar oyi” boshlanar. (M. Karimova / Asal oyi)

Xalq suygan shoira M.Karimova chet ellik kelinlar uchun to'ydan keyin bir oy asal oyi bo'lishini qaysidir ma'noda havas qilib, o'zbek kelinlari uchun esa bir qator turmush qiyinchiliklari zimmalariga yuklatishligini achinish hissi bilan “Asal oyi” oyini “Sahar oyi”, “Tashar oyi”, “Chopar oyi”, “Uchar oyi”, “Sochar oyi”, “Ochar oyi”, “Buzar oyi”, “Zahar oyi”, “Kasal oyi”, “Yashar oyi”, “Safar oyi” kabi ifodalar bilan zid ravishda kinoya va kulgu ostida tasvirlaydi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, bugungi kunda Germaniya davlatida nikohsiz ham, ya'ni davlat va cherkov tomonidan qayd etilmasdan birga yashab va hatto farzandli bo'lib yashash odat tusini olgan. Shuning uchun ham nemis xalqida do'st leksemasi birga yashayotgan yigit-qizlarga nisbatan aytila boshlandi. Masalan: Er ist mein Freund. Sie ist meine Freundin (U mening do'stim. U mening dugonam) deyilsa, birga eri-xotin sifatida yashayotganliklarini ham tushunish mumkin. Nemis tilining izohli lug'atida do'st so'ziga atroflicha ta'rif berilgan (Der Freund) Freund der; -(e)s, -e **1. ein F. (von j-m)** j-d, den man sehr gut kennt u. zu dem man über e-e enge Beziehung hat <ein guter, treuer, wahrer F.; viele Freunde haben / besitzen. **2. j-s F.** ein Junge od. Mann, der mit e-m Mädchen od. e-r Frau befreundet ist (u. mit ihr zusammenlebt) Sie fährt mit ihrem F. in Urlaub. **3. j-d,** der in e-m Konflikt, Streit o. Ä. für einen ist Feind, Gegner <politische Freunde>: Du brauchst keine Angst zu haben, hier befindest du dich unter

Freunden. **4. ein F.** + Gen/von **etw.** geschr; j-d, der **etw.** sehr gern mag (u. sich dafür einsetzt) Gegner <ein großer, ausgesprochenener F. der Kunst, der Oper, von guter Musik> || -K: **Bücher-, Kinder-, Kunst-, Menschen-, Musik-, Natur** **5. ein alter F.** j-d, der schon lange j-s F. (1) ist. 6. **dicke Freunde** nur PL, gespr; Personen, die sehr eng miteinander befreundet sind. [3. 1160. b]

Nemis tilining izohli lug'atida "do'st" so'ziga atroflicha ta'rif berilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

1. Дўст bu kimnidir yaxshi tanish va u bilan yaqin munosabatda bo'lish < yaxshi, sodiq, haqiqiy do'st.; ko'pgina do'stlari bo'lmoq. Do'sti bilan ta'tilga bormoq.

2. **Kimningdir do'sti.** Yigit yoki erkakning bir qiz yoki ayol bilan do'stlashgani u bilan birga yashashidan dalolat beradi.

3. Kim bilandir konflikt yoki nizoga borish dushman yoki raqib hisoblanadi. Sen qo'rqmasliging kerak, sen bu yerda do'stlaring orasidasan.

4. Do'st so'zi **von** yuklamasi bilan qaratqich kelishigida berilganda ishqiboz ma'nosida qo'llaniladi. Masalan san'at ishqibozi, opera ishqibozi, musiqa ishqibozi kabilar.

5. Eski do'st. Uzoq yillardan beri do'st bo'lsa.

6. Qalin do'stlar.

Ko'rinadiki, nemis tilining izohli lug'atidagi do'st leksemasining ikkinchi ma'nosida yigit va qizning nikohsiz yoki to'y marosimisiz birga yashashlarini tushunish mumkin.

Bir necha yillar oldin o'zbek xalq urf-odatlarida ichida nikoh to'yi bilan bog'liq ichki marosimlar to'ydan avvalgi, to'y kuni va to'ydan keyin o'tkaziladigan urf-odatlar nomlariga bo'lingan. Ulardan ba'zilari shu kunga qadar saqlanib qolingan.

To'ydan avvalgi urf-odatlar bilan bog'liq leksik birliklar tarkibiga qadimda **quloq tishladi, beshikkerti, qo'lini so'radi, unashirdi, oq kiydi, non sindirdi, bosh bog'landi, uy ko'rdi, qiz ko'rdi, to'y yubordi, ziyofat pishirdi, supra ochdi, tandir qurdi, novvoy tushdi, qozon qurdi, so'qim so'ydi, tuyoq tiriltirdi, (to'y)xat yozdi, sabzi archdi, quda quvdi, savat qaytdi, qop qaytardi, og'iz bog'landi** kabi leksik birliklar kiradi. Bugungi kunda esa to'ydan avvalgi urf-odatlar bilan bog'liq nomlardan, masalan Farg'ona vodiysida **unashirdi, oq kiydi, non sindirdi, bosh bog'landi, uy ko'rdi, qiz ko'rdi, to'y yubordi, ziyofat pishirdi, supra ochdi, so'qim so'ydi, (to'y)xat yozdi, sabzi archdi, savat qaytdi, og'iz bog'landi** kabi leksik birliklar saqlanib qolganligini kuzatishimiz mumkin.

Nemis xalqida esa to'ydan avvalgi marosim sifatida "**Verlobung**" (Unashtiruv) marosimining leksik birligini keltirishimiz mumkin.

O'zbek xalqida to'y kuni o'tkaziladigan rasm-rusumlar nomlariga **nahorgi osh, qiz bazmi, xotinlar oshi, kelin salom, yo'l to'sdi, olov aylantirish, oyoq bosdi, oyna ko'rsatar** kabi lug'aviy birliklar mansub. Mazkur birliklar ma'nolari doirasidagi dastlabki harakat bilan bog'liq ma'nolar saqlangan bo'lsa-da, ular muayyan urf-odat nomlari sifatida yaxlitlashgan butunlik tarzida amal qiladi.

Nemis xalqi to'y kuni o'tkaziladigan kichik marosimlar sifatida "mehmonlar tomonidan sovg'alar va to'yonalarning topshirilishi", "oq matohga istak va tilaklarning yozilishi", "kelin-kuyov tashakkuri", "kelin-kuyov raqsi", "kelin-kuyov tomonidan tortni kesish", "gul iringitish" kabi urf-odatlarini qayd etish mumkin. Mehmonlar tomonidan sovg'alar va to'yonalarning topshirilishida restoranga kirishdan avval mezbongarga turli ichimliklar tavsiya etiladi, mehmonlar bir-birlari bilan salomlashib oladilar va kelin-kuyov uchun olib kelgan to'yonalarni birma-bir taqdim etadilar. Shundan so'ng kelin-kuyov tomonidan tayyorlangan oq matohga tilak-istaklarini yozib qoldiradilar. So'ngra barcha mehmonlarning restoranga kirishlari buyuriladi. Kuyov so'zga chiqib tashrif buyurgan mehmonlarga tashakkur izhor etib, o'z nutqida mehmonlar qayerdan tashrif buyurganlari, to'y marosimida qanday taomlar tortiq etilishi, mehmonlar bilan qachonlardir birga tushgan sur'atlari to'yxonada ilib qo'yilgani va ulardan estalik uchun olib ketishlari mumkinligini aytib o'tadi. To'y davomida raqs leksemasi alohida o'rin tutadi va kelin-kuyov tomonidan maxsus tayyorlangan raqslari ijro etiladi. Raqs tugagandan so'ng kuyov va kelinning do'stlari oq matoni boshlariga soyabon qilib ushlab turadilar. Mehmonlar o'z xohishlariga qarab matohga pul tashlaydilar. Erkak mehmon kelin bilan, ayol mehmon esa kelin bilan bir muddat raqsga tushadilar. Yig'ilgan pul kelin-kuyovning "asal oyi" sayyohatlari uchun yoki biror ehtiyojlari uchun sarflanadi. Raqsdan so'ng oq matoni kuyovning jo'rallari o'zaro talashib, matoni olgan jo'ra g'olib hisoblanadi. Bu odat o'zbek to'y marosimidagi kuyov va kuyov jo'rallar oyog'i ostiga solinadigan poyondoza o'xshab ketadi. Kuyov poyondoza o'tib bo'lgandan so'ng kuyov jo'rallar o'zaro poyondozni talashib tortadilar va g'olib chiqqan kuyov jo'ra poyondoza ega bo'ladi. To'y marosimi davomidagi tort leksemasi to'yga alohida joziba bag'ishlaydi. To'yga kelin-kuyov tomonidan barchaga yetarli darajada tort tayyorlanadi, pichoqni birga ushlagan holatda tortni kesib, avval kelin-kuyov bir-birlariga yediradilar, so'ng mehmonlarni tortga taklif etadilar. To'yda guldasta leksemasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Kelin turmushga chiqmagan dugonalarini

TILSHUNOSLIK

davraga chorlab, orqasini qilgan holda ularga guldasta otadi. Aytishlaricha, navbatdagi to'y guldastani tutib olgan qizga nasib qilar ekan.

O'zbek to'ylarida esa nemis to'ylaridan farqli o'laroq, "mehmonlar tomonidan sovg'alar va to'yonalarning topshirilishi" marosimida to'yonalar faqat kelin-kuyovga emas, balki ularning ota-onalariga berishlarini, kelin-kuyov nutq so'zlamasligi, kelin-kuyov raqsi, kelin-kuyov tomonidan tortni kesish barcha to'ylarda urf emasligi, ba'zi to'y marosimlarida esa gul irg'itish Yevropa to'ylariga taqlid qilingan holda o'tkazilayotganini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek to'ylari uzoq yillar davomida erkaklar uchun nahorgi osh, ayollar uchun tushlik vaqtida bazm va shu bilan birgalikda **yuz ochdi, kelin salom** va kechga yaqin esa yoshlar uchun bazm tashkillanishi va bu orada hamkasblar uchun ham alohida dasturxon yozilishi odat tusini olgan. Yuqoridagi aytilgan mprosimler kuyov tomonida o'tkazilsa, kelin tomonida esa nonushta nahorgi osh, kuyov jo'ralar, qarindoshlar va hamkasblarning kutib olinishi kunning yarmiga qadar urfga aylangan.

XULOSA

Inson hayotida urf-odatlar, jumladan, to'y, aza va ular bilan bog'liq tantanalar katta o'rin egallaydi. Shuning uchun har biri kishi urf-odatlar taraqqiyotga qanchalar zarurligini, zamonaviy davr talablariga qanchalar mos ekanini anglashi va ayni paytda, boshqa xalqlar udumlarini tubdan bilishi maqsadga muvofiq. Jumladan, o'zbek va nemis davlatlarining har qaysisida to'y munosabati bilan o'tkaziladigan marosimlar turlicha bo'ladi. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, turli xalqlar urf-odatlarini bilan bog'liq ayrim tushunchalar ba'zi izlanishlarning tadqiq obyekti bo'lgan. Mazkur maqolada o'zbek va nemis xalqlari urf-odatlarini, xususan, to'y bilan aloqador nomlarning tavsifi, ularning qo'llanilish o'rni borasida qimmatli bir qancha ma'lumotlar beriladi.

ADABIYOTLAR

1. Джурабаев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке (на материале андижанском группы говоров): Автореф.дисс....канд.филол.наук. Ташкент, 1971; Хусаинова З. Ономазиологическое исследование названий свадебных обрядов в узбекском языке (на материалах Бухарской группы говоров): Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. Тошкент, 1984; Хайитова Ф. Никоҳ тўйи қўшиқларининг лингвистик талқини: Филол.фанлари номзоди... дисс.автореф. Тошкент, 1998;Қаҳҳорова М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи: Филол.фанлари номзоди... дисс. Тошкент 2009, Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари.-Т.: Фан, 1974.- 140-151 бетлар.
2. Larcher.D. Die Liebe in Zeiten der Globalisierung: Konstruktion und Dekonstruktion von Fremdheit in interkulturellen Paarbeziehungen. Klagenfurt: Drava. 2000
3. Kienecker.S Interethnische Ehen: Deutsche Frauen mit ausländischen Partnern. Münster: LIT-Verlag. 1993; Minshawi.B. Wir suchen, wovon wir träumen: Zur Motivation einen Partner aus dem islamischen Kulturkreis zu wählen. Frankfurt/Main: Nexus. 1998; P.Ardach. Interkulturelle Lebenswelten: Deutsch-japanische Ehen. Frankfurt/Main: Campus. 1988; D.Döring. Familiengeheimnisse und Tabus: Wie Sie sich Ihrer Vergangenheit stellen können. München: mvg Verlag. 2009; M.Caroni. Privat- und Familienleben zwischen Menschenrecht und Migration: Eine Untersuchung zu Bedeutung, Rechtsprechung und Möglichkeiten von Art. Berlin: Duncker und Humblot. 1999
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том, 243-244-бет.
5. Langenscheidt. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache.Berlin und München:2008. S-554
6. Хайитова Ф.Б. Никоҳ тўйи қўшиқларининг лисоний талқини: Филол.фанлари номзоди ... дисс.автореф. Тошкент, 1988.- 6-бет.
7. М.М.Кахарова. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи.дисс.- Тошкент, 2009.